

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari Direktorlar kengashi to'g'risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shaharda tashkil etilgan Umumiy o'rta ta'lim muassasalari Direktorlar kengashining (keyingi o'rinlarda — Kengash) maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlari, shuningdek, faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom talablari Qoraqalpog'iston Respublikasi viloyatlar va Toshkent shahardagi umumiy o'rta ta'lim muassasalari (keyingi o'rinlarda — maktab) direktori lavozimiga talabgor nomzodlarga nisbatan tatbiq etiladi.

2. Mazkur Nizom talablari quyidagi maktab direktori lavozimlariga tatbiq etilmaydi:

Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablar;
nodavlat umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari;
jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari;
sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari;
alohida sharoitlarda ta'minlash, tarbiyalash va ta'lim berishga muhtoj bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar.

3. Maktab direktorlarini lavozimga tayinlash Kengash tavsiyasiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi (keyingi o'rinlarda — hududiy boshqarmalar) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi.

nomzod — pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi qonunchilik bilan cheklanmagan va malaka talablariga javob beradigan hamda direktorlik lavozimiga tanlovda ishtirok etish uchun ariza bergan shaxs;

maxsus portal — direktorlik lavozimiga nomzodlarni ro'yxatdan o'tkazish bilan bog'liq ma'lumotlar joylashtiriladigan elektron dasturiy tizim;

tanlov — maktab direktori lavozimiga nomzodlarni dastlabki saralash va suhbat bosqichidan o'tkazish hamda vakant lavozimga munosib nomzodni tavsiya etishni o'z ichiga olgan jarayon;

dastlabki saralash — nomzodlarning maktab direktori lavozimi uchun belgilangan malaka talablariga mosligini o'rganish jarayoni;

suhbat — Kengash a'zolari tomonidan har bir nomzodning soha bo'yicha bilimi, malakasi, shaxsiy-kasbiy fazilatlarini, ta'lim sohasidagi islohotlardan xabardorligini aniqlashga qaratilgan savol (topshiriq)lar beriladigan intervyu jarayoni.

5. Kengash Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi eng mahoratli, liderlik qobiliyatiga ega, tashabbuskor, kreativ, zamonaviy fikrlaydigan maktab direktorlaridan iborat bo‘lgan tarkibda tuziladi hamda O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining buyrug‘i bilan (vazirlik mutaxassisleri tomonidan suhbat asosida) tasdiqlanadi.

Kengash tarkibiga zaruratga ko‘ra boshqa tashkilot vakillari ham Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi (keyingi o‘rinlarda — vazirlik) tavsiyasiga asosan kiritilishi mumkin.

Kengash o‘z faoliyatini jamoatchilik asosida yuritadi, oshkoralik, kollegiallik, o‘zaro hurmat, teng huquqlilik tamoyillariga amal qiladi va vazirlikka to‘g‘ridan-to‘g‘ri hisobdor hisoblanadi.

6. Kengash o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va Qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, vazirlik Hay’atining qarorlari, buyruqlari va ko‘rsatmalariga, ushbu Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

7. Kengash qarorlari hududiy boshqarmalar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2-bob. Kengashning asosiy vazifalari va vakolatlari

8. Quyidagilar Kengashning asosiy vazifalari hisoblanadi:

maktab direktori lavozimiga yuksak axloqiy fazilatlariga, yuqori malaka va tajribaga, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga, boshqaruvchilik qobiliyatiga ega mutaxassislarni tanlash, saralash asosida munosib nomzodlarni tavsiya etish;

maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonlari boshqaruvida jamoatchilik ishtirokini kengaytirish orqali takomillashtirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish va vazirlikka kiritish;

maktablarda ta’lim-tarbiya jarayonlari sifati va samaradorligini ta’minlash, bunda, samarali boshqaruvni amalga oshirish, o‘quv-tarbiya jarayonining monitoringini olib borish hamda tegishli takliflar ishlab chiqish;

maktablarda sog‘lom ishchanlik va ma’naviy muhitni shakllantirish, pedagoglarning samarali kasbiy faoliyati uchun tegishli sharoitlarni yaratish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish;

ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish asosida maktab direktorlarining faoliyati samaradorligini baholash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

har bir Kengash a’zosi o‘zining kasbiy va shaxsiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib borish uchun yillik shaxsiy rivojlanish rejasini ishlab chiqish va yiliga ikki marotaba vazirlikka hisobot berish;

yangi tayinlangan direktorlarni bilim va malakasini oshirish uchun ikki yilgacha shaxsiy rivojlanish rejalarini nazorat qilib borish;

Maktab ma’muriyatining (Direktor, direktor o‘rinbosari) kasbiy va shaxsiy bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun har chorakda kamida bir marotaba o‘quv seminar-treninglar o‘tkazish;

maktab boshqaruvida sog'lom muhitni tashkil etish maqsadida pedagoglar, ota-onalar o'rtasida so'rovnomalar va o'rganishlar o'tkazish.

3-bob. Kengashning huquqlari va majburiyatlari

9. Kengash o'zining asosiy vazifalarini amalga oshirish uchun quyidagi huquqlarga ega:

o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo'lgan axborotni belgilangan tartibda davlat organlari va tashkilotlari hamda maktablardan so'rab olish;

Kengash yig'ilishlarida kengash a'zolari tomonidan ishlab chiqilgan ish rejalar va dasturlarni muhokama qilish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarini zamonaviy ta'lim tashkiloti darajasiga olib chiqish hamda ta'lim-tarbiya sifatini oshirish yuzasidan muhokamalar o'tkazish va ularni takomillashtirish yuzasidan vazirlikka takliflar kiritish;

Kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

10. Kengash ushbu Nizomda belgilangan asosiy vazifalar bajarilishini ta'minlashga majburdir.

Kengash qonunchilik hujjatlariga muvofiq o'z zimmasiga boshqa majburiyatlarni ham olishi mumkin.

4-bob. Kengash faoliyatini tashkil etish

11. Kengash — rais, rais o'rinbosari, a'zolar va Kengash kotibidan iborat tarkibda shakllantiriladi.

Suhbatda ishtirok etayotgan nomzodlarning psixologik portretini aniqlash uchun ta'lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan psixologlar Kengash tarkibiga Kengash a'zosi sifatida kiritiladi.

Bunda, Kengash a'zolari soni hududdagi umumiy o'rta ta'lim tashkilotlari sonidan kelib chiqqan holda maktab direktorlari hamda soha mutaxassislari orasidan 7 nafardan 9 nafargacha belgilanadi.

Kengash a'zosi quyidagi holatlarda vazirlik bilan kelishgan holda Kengash qarori bilan Kengash tarkibidan chiqariladi:

- kengash a'zosi amalda egallab turgan lavozimidan ozod etilganda;
- kengash a'zosi bir yil ichida sababsiz 3 ta suhbatda ishtirok etmaganda;
- Nizomda belgilangan talablar va o'ziga yuklatilgan majburiyatlarni yetarli darajada bajarmaganda;
- boshqa uzrli sabablar mavjud bo'lgan holatlarda.

Kengash a'zosi Kengash tarkibidan chiqarilganda, Kengash tarkibida bo'sh joy vujudga kelgan kundan boshlab **o'n ish kuni** ichida Kengash tomonidan nomzod tavsiya etiladi va vazirlik suhbatidan o'tib, tavsiya etilgan nomzod Kengash qarori bilan Kengash tarkibiga kiritiladi.

12. Kengash raisi:

Kengash a'zolari ichidan bir nafari a'zolar tomonidan ovoz berish orqali vazirlik bilan kelishgan holda Kengash raisi etib saylanadi.

Kengash raisi Kengash yig'ilishi kun tartibini belgilaydi va uni chaqiradi;

Kengash o'zi tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlar va suhbatlar bo'yicha qarorlarini tasdiqlaydi va ijrosini nazorat qilinishini tashkil etadi;

Kengashning yillik ish rejasini tasdiqlaydi, shuningdek, uning ijrosi to'g'risidagi hisobotni vazirlikka taqdim etadi;

Kengash a'zolariga yuklangan vazifalar ijrosi bo'yicha ularning ishini muvofiqlashtiradi;

Kengashning samarali faoliyatini ta'minlash uchun boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

13. Kengash raisi o'rinbosari:

Kengash a'zolari ichidan bir nafari a'zolar tomonidan ovoz berish orqali vazirlik bilan kelishgan holda Kengash raisi o'rinbosari etib saylanadi.

Kengash raisi o'rinbosari Kengash raisi yo'qligida uning vazifasini bajaradi shuningdek, Kengash yig'ilishlarida raislik qiladi;

Kengash ish rejasining ijro etilishini tashkil etadi va nazorat qiladi;

Kengash faoliyatiga tegishli hisobotlarni kotib bilan birgalikda tayyorlaydi.

14. Kengash o'z vakolatlarini boshqa shaxslarga berishga haqli emas.

15. Kengash a'zolari:

Kengash yig'ilishlarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal etishda ishtirok etadi;

ta'lim tashkilotini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo'yicha Kengash muhokamasiga takliflar kiritadi;

Kengash tomonidan ko'rib chiqiladigan masalalar bo'yicha tavsiyanoma yoki xulosalar taqdim etadi;

Kengash qarorida belgilangan vazifalarni bajaradi;

Kengash a'zolari yig'ilishda shaxsan yoki masofadan (onlayn) ishtirok etishi kerak.

16. Kengash o'z ishini Kengash tomonidan tasdiqlangan rejalar asosida tashkil etadi va o'z yig'ilishlarini zaruratga ko'ra, biroq har oyda kamida bir marta o'tkazadi.

17. Kengash yig'ilishi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi. Yig'ilish o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, Kengash yig'ilishining navbatdagi o'tkaziladigan sanasi e'lon qilinadi.

18. Kengash yig'ilishida ko'rib chiqilayotgan masalalarning xususiyatiga bog'liq ravishda hududiy boshqarmalar boshliqlari va mutaxassislari, ta'lim tashkiloti xodimlari, alohida soha mutaxassislari taklif etilishi mumkin.

19. Hududiy boshqarmalarning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'limi mas'ul xodimlaridan bir nafari Kengash kotibi bo'lib, u ovoz berish huquqiga ega bo'lmaydi.

Zaruratga ko'ra, Kengash kotibi hududiy boshqarmalarda faoliyat yuritib kelayotgan malakali xodimlar orasidan saralanib, vazirlik tomonidan suhbat asosida tarkibga kiritilishi mumkin.

Kengash kotibi:
vakant direktorlik lavozimlari uchun tanlov tashkil etadi;
barcha zarur hujjatlar Kengash yig'ilishiga o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi;
yig'ilishni o'tkazish muddati va joyini Kengash raisi bilan kelishadi;
kun tartibidagi masalalar bo'yicha Kengash yig'ilishlari o'tkazilishini tashkil etadi;
Kengash a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni yig'ilish o'tkaziladigan sana, kun tartibi loyihasi, vaqti va joyi to'g'risida xabardor qiladi;
Kengash qarorlari ijrosi monitoringini olib boradi;
Kengash yig'ilishi bayonnomalarini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomalarni hududiy boshqarmaga taqdim etadi;
Kengash faoliyatiga tegishli hisobotlarini tayyorlaydi;
Kengash hujjatlari saqlanishini, shuningdek, Kengashning faoliyati to'g'risidagi axborotni hududiy boshqarmalarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalariga joylashtirilishini ta'minlaydi.

5-bob. Kengash tomonidan qarorlar qabul qilinishi va ularning ijrosini tashkil etish

20. Kengash qarori yig'ilishda ishtirok etayotgan Kengash a'zolarining ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lib qolganda, Kengash raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Kengash qarorlari bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi va Kengash a'zolari tomonidan tasdiqlanadi.

22. Kengash bayonnomasining asli va unga tahliliy materiallar tegishli ravishda hududiy boshqarmalarda saqlanadi.

23. Kengash kotibi Kengash a'zolari ko'magida Kengash qarorlari bajarilishini muntazam ravishda o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarurat bo'lganda, Kengash raisiga tegishli takliflar kiritadi.

24. Kengash a'zolari qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda rag'batlantirilishi mumkin.

6-bob. Direktor lavozimi uchun ochiq tanlov tashkil qilish tartibi

25. Vazirlik tizimidagi maktablarning vakant bo'lgan direktor lavozimiga ochiq tanlov (keyingi o'rinlarda — tanlov) o'tkaziladi.

26. Tanlov umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida vakant bo'lgan direktorlik lavozimlariga belgilangan malaka talablariga muvofiq eng munosib nomzodni dastlabki saralashdan o'tkazish va Kengash tavsiyasi asosida ishga qabul qilish maqsadida o'tkaziladi.

27. Tanlov uch bosqichda tashkil etiladi:

birinchi bosqich — tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon berish;

ikkinchi bosqich — nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish, dastlabki saralashdan o'tkazish va Kengashga taqdim etish;

uchinchi bosqich — nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish.

28. Hududiy boshqarmalarning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘limi boshlig‘i Kengash kotibiga direktorlik lavozimi vakant bo‘lgan maktablar ro‘yxatini vakant lavozim vujudga kelgan kundan so‘ng **3 ish** kunidan kechiktirmay taqdim etadi.

Tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘lon **bir ish kuni** ichida maxsus portalga (keyingi o‘rinlarda — platforma) joylashtiriladi.

29. Vakant lavozimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar platformaga joylashtirilgan sana mazkur lavozimni egallash bo‘yicha tanlov e‘lon qilingan kun deb hisoblanadi.

Tanlov o‘tkazish to‘g‘risidagi e‘londa quyidagilar ko‘rsatiladi:

maktab direktori lavozimining malaka talablari;

lavozim majburiyatlari;

amaldagi lavozim maoshi;

vakant direktor lavozimi mavjud umumta‘lim muassasalari nomi va manzili.

30. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha nomzodlar tanlov e‘lon qilingan kundan boshlab **besh kalendar kun** ichida ariza topshirishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalar kelib tushmagan taqdirda, ushbu lavozim bo‘yicha qayta tanlov e‘lon qilinadi.

Tanlovning barcha bosqichlari tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab **yigirma ish kuni** mobaynida o‘tkazilishi lozim.

31. Tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risidagi e‘lon hududiy boshqarmalarning ijtimoiy tarmoqdagi rasmiy sahifalarida ham yoritiladi.

32. Bitta vakant lavozim uchun talabgorlar soni kamida **ikki nafar** bo‘lganda tanlov tashkil etiladi.

33. Tanlovda ishtirok etish bo‘yicha arizalar faqat platforma orqali elektron tarzda qabul qilinadi.

Istisno tariqasida, platformani takomillashtirish bilan bog‘liq texnik ishlar olib borilayotgan vaqtda direktorlik lavozimiga nomzodlar Kengash raisi nomiga yozilgan yozma murojaatiga asosan tanlovda ishtirok etishi mumkin.

34. Nomzod bir vaqtning o‘zida faqat bitta vakant lavozim uchun e‘lon qilingan tanlovda ishtirok etishi mumkin.

Suhbatdan o‘tolmagan nomzod navbatdagi tanlovda uch oydan keyin ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

35. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo‘yicha tanlov natijasiga ta‘sir qiladigan yolg‘on ma‘lumotlar (hujjatda yo‘l qo‘yilgan texnik xatolik yoki boshqa kamchiliklar bundan mustasno) taqdim etilganligining aniqlanishi ularni tanlovdan chetlatish yoki tanlov natijalarini bekor qilish uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

36. Maktab direktorlari lavozimiga nomzodlarni tanlov asosida saralash va lavozimga tayinlash mazkur Nizomga ilova qilingan sxema asosida amalga oshiriladi.

7-bob. Tanlovning suhbat bosqichiga tavsiya etish uchun nomzodlarni dastlabki saralash tartibi

37. Dastlabki saralashda nomzodlarning malaka talablariga mosligi mehnatga oid qonunchilik hujjatlari hamda mazkur Nizom talablariga asosan amalga oshiriladi.

Maktab direktori lavozimi uchun qo'yilgan malaka talablari:

kamida bakalavr darajasidagi oliy ma'lumot;

menejerlik sertifikati;

ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj;

Maktabgacha va maktab ta'limi sohasiga oid qonunchilik hamda idoraviy va ichki lokal hujjatlardan, shuningdek ta'lim standartlaridan xabardor bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunining 28-moddasiga muvofiq qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslar ta'lim tashkilotlarining rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi mumkin emas.

Shuningdek, xorijiy tillardan birining boshlang'ich bosqichini va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni, davlat tilini bilishi (*rus, ingliz va boshqa chet tillarini bilish ustuvorlik beradi*).

38. Malaka talablarini o'rganish uchun Kengash kotibi shaxsan javobgar hisoblanadi.

Kengash kotibi:

platformada ro'yxatdan o'tgan nomzodlarning ro'yxatini shakllantiradi;

belgilangan tartibda nomzodlarning lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligini o'rganib chiqadi;

Hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran **o'n ish kuni ichida** o'rganish natijalarini nomzodlarning platformadagi shaxsiy kabinetlariga yuboradi.

39. Quyidagi holatlarda arizalar rad etiladi:

- nomzodning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi qonunchilik bilan cheklanganlik holati aniqlanganda;

- nomzod arizasini qaytarib olish to'g'risida yozma murojaat berganida.

Nomzodlarning shaxsiy kabinetiga xabar yuborilgan kundan e'tiboran **bir ish kuni ichida** o'rganish natijalariga ko'ra malaka talablariga mos kelgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar Kengashga suhbat o'tkazish uchun taqdim etiladi.

**8-bob. Direktorlar kengashi tomonidan suhbat o'tkazish
va munosib nomzodni lavozimga tayinlash tartibi**

40. Suhbat Kengash kotibi tomonidan dastlabki saralashdan o'tgan nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar Kengashga taqdim etilgan kundan e'tiboran **beshtash kuni ichida** o'tkaziladi.

Suhbat boshlanishidan kamida **24 soat oldin** Kengash kotibi nomzodlarning platformadagi shaxsiy kabinetiga suhbat o'tkazilish sanasi, vaqti, joyi haqidagi xabarni yuboradi.

Agar Kengash a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa yoxud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik tanlov natijalarini bekor qilishga asos bo'ladi.

41. Suhbat jarayoni intervyu usulida tashkil etiladi.

Ushbu jarayonda har bir nomzodga soha bo'yicha bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi, ta'lim sohasidagi islohotlardan xabardorligi, vakant lavozim uchun mosligini aniqlashga qaratilgan beshta savol (3 ta sohaga oid savol, 1 ta keys, 1 ta psixologik topshiriqlar) tasodifiy tanlash orqali beriladi.

Asosiy savollardan so'ng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan uchta qo'shimcha savol berish mumkin.

Bunda, har bir nomzod bilan suhbat davomiyligi 15-20 daqiqadan oshmasligi lozim.

Suhbat savollari, keyslar va psixologik topshiriqlar Kengash a'zolari tomonidan ishlab chiqiladi hamda Kengash yig'ilishida tasdiqlanadi.

Suhbat savollari, keyslar va topshiriqlar — O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, ta'lim, pedagogika, mehnat munosabatlari, korrupsiyaga qarshi kurash, manfaatlar to'qnashuvi, davlat fuqarolik xizmatiga oid qonun hujjatlari, odob-axloq qoidalari shuningdek, O'zbekiston Respublikasi va Vazirlar Mahkamasining qaror va Farmonlari asosida shakllantiriladi.

42. Kengash a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

43. Nomzodlarning suhbat jarayoni to'liq video tasvirga olinadi va olti oy davomida Kengashda saqlanadi.

44. Suhbat natijalariga asosan har bir vakant o'ringa bir nafar nomzodni direktor lavozimiga tayinlash bo'yicha qaror qabul qilinadi.

Suhbat o'tkazilgan kundan e'tiboran **bir ish kuni ichida** Kengash yig'ilishida qabul qilingan qaror-bayonnoma shaklida rasmiylashtiriladi hamda kengash a'zolari va kotib tomonidan tasdiqlanadi.

Shu kunning o'zida Kengash kotibi Kengash qarorini hududiy boshqarma boshlig'iga taqdim etadi hamda suhbat natijalari to'g'risidagi xabarni nomzodlarning shaxsiy kabinetiga yuboradi.

Kengash tomonidan suhbat natijalariga ko'ra direktor lavozimiga nomzodlar munosib deb topilmaganda, qayta e'lon berish uchun hududiy boshqarmaga tavsiya beriladi.

45. Hududiy boshqarmalar boshlig'i kengash qarori taqdim etilgan kundan e'tiboran **ikki ish kuni ichida** kengash tomonidan tavsiya etilgan nomzod bilan mehnat shartnomasi tuzadi hamda lavozimiga tayinlash to'g'risida buyruq chiqaradi.

9-bob. Yakunlovchi qoidalar

46. Ushbu Nizom qo'llanilishi munosabati bilan yuzaga keladigan nizolar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

47. Kengash a'zolari tomonidan tanlov davomida nomzodlar to'g'risida olingan shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish taqiqlanadi.

48. Nomzodlar suhbat qaroridan norozi bo'lgan taqdirda sudga murojaat qilish huquqiga ega.

49. Ushbu Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

50. Kengashni qayta tashkil etish va tugatish qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining buyrug'i bilan amalga oshiriladi.